



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
INNOVATSION
RIVOJLANISH VAZIRLIGI

BOSHLANG'ICH TA'LIMGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI TATBIQ ETISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI VA RIVOJLANISH OMILLARI

XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMANI

MATERIALLARI



**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ
БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ
МАКТАБГАЧА ВА БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМ ФАКУЛЬТЕТИ
БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМ МЕТОДИКАСИ КАФЕДРАСИ**

**БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМГА РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ ТАТБИҚ
ЭТИШНИНГ ЗАМОНАВИЙ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ ВА РИВОЖЛАНИШ
ОМИЛЛАРИ**

**ХАЛҚАРО МИҚЁСИДАГИ ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АНЖУМАН
МАТЕРИАЛЛАРИ**

2021 йил, 1 -2 апрель

БУХОРО - 2021

Maktab ta'limining zamonaviy shakli va mazmuni oldingi ta'lim tizimidan tubdan farq qiladi. Ta'limni raqamlashtirish - bu elektron tizimga o'tish jarayonining nomlanishi. Ayni paytda kelajakdagi o'zgarishlar haqida batafsil gapirish mushkul, biroq hozir biz mana shu xato va kamchiliklarni tuzatishimiz hamda o'zgartirishimiz mumkin. Yaqin kelajakda o'quv materiallari, rejalar, sinflar jurnallari - bularning barchasi onlayn ko'rinishlarga o'tadi. Hozirgi kunda ham bilim olish uchun ko'pgina onlayn platforma va dasturlar yaratilgan. Bular yordamida o'quvchilar uydan chiqmasdan, internetdan foydalangan holda darslarni o'zlashtirishlari hamda onlayn olimpiada va testlar orqali bilimlarini sinash imkoniyatiga egalar.

Bugungi kunda maktablar zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlanmoqda. Har bir ta'lim muassasasida axborot tizimiga kirish uchun kompyuterlar, elektron doskalar bilan bir qatorda optik tolali internet bilan ham ta'minlanmoqda.

Hozirgi davr o'qituvchilar yangilanayotgan va raqamlashtirilayotgan ta'lim tizimini puxta o'rganishlari lozim. Negaki ushbu kasb mohiyati tubdan o'zgaradi. Ta'lim tizimining raqamlashtirilishi o'quv materiallarini mustaqil o'rganish imkonini beradi. Ushbu jarayonda o'qituvchi yordamchi, yo'naltiruvchi vazifalarini bajaradi.

Raqamli texnologiyalar bilan tashkil qilinadigan ta'lim tizimi mustaqil ishlashni nazarda tutganligi sababli, o'quvchilar yoshligidan bilimga intilishi, o'z kuchi, mehnati bilan erishishi kerakligini tushunadi. Ta'lim tizimining bunday raqamlashtirilishi kelajakda o'quvchilarning mustaqil fikr yuritish qobiliyatini yanada mustahkamlaydi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki rangli tasvirlar insonning ma'lumotni yaxshiroq eslab qolishiga yordam berar ekan. Bundan tashqari, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga ham katta hissa qo'shadi. Shunday ekan o'quv materiallarini raqamli texnologiyalar orqali rang-barang tarzda berilishi o'quvchilar qizishishini orttirishi bilan bir qatorda ma'lumotlarni xotirasida yaxshi saqlab qolish imkonini beradi. Bu esa o'z navbatida ta'lim sifatini oshishiga katta hissa qo'shadi. Zero, ta'lim jarayonidagi har bir o'zgarish va joriy etilayotgan yangiliklardan ko'zlangan maqsad o'sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama yetuk va barkamol qilib voyaga yetkazishdir!

Foydalanilgan adabiyotlar

1. "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" dagi PQ – 2909 – sonli qarori. 2017- yil 20- aprel.
2. Jumaboyev M. E, Tadjibayeva G'. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodlari. – Toshkent, 1990-yil.
3. Boshlang'ich sinf matematika darslarida didaktik materiallar. –Namangan, 2005-yil.
4. Михеева Е.В. Информационные технологии в профессиональной деятельности. -М.: "Академия", 2004 г.
5. [www. ziynet. uz](http://www.ziynet.uz)
6. www.edu.uz

BOSHLANG'ICH SINF MATEMATIKA TA'LIMNI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ORQALI IJODIY TASHKIL ETISH JARAYONI

M.J.Yarashov, BuxDU o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada boshlang'ich sinflarning matematika ta'limi jarayonini ijodiy tashkil etishda raqamli texnologiyalardan foydalanish usullari, o'quvchilarni ijodiy fikrlashga o'rgatishda axborot kommunikatsion texnologiyarning o'rni beqiyos ekanligi, ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarni mavzularni yaxshi tushunishi hamda ta'lim jarayoniga qiziqishini orttirish imkonini berishi xususida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: ijod, ijodiy fikrlash, ta'lim, raqamli texnologiya, ta'lim, bilim, integratsiya, muammoli ta'lim, zamonaviy ta'lim, interfaol, innovatsion, metod, didaktik o'yin.

Аннотация. Статья генетическая в творческой организации в творческой организации начальных школ, использование цифровых технологий в образовательном процессе хорошо понимают учащихся в образовательном процессе и говорится о договоренности о повышении процента в образовательном процессе.

Ключевые слова: творчество, творческое мышление, образование, цифровые технологии, образование, знания, интеграция, интерактивный, инновационный, метод, технология, методическая игра..

Annotation. The article is genetic in creative organization in the creative organization of the primary schools, the use of digital technology in the educational process well understand students in the educational process and is talked about agreed to increase interest in the educational process.

Key words: creativity, creative thinking, education, digital technology, education, knowledge, integration, interactive, innovative, method, technology, methodical game.

Ta'lim-tarbiya tizimini tubdan o'zgartirish, barkamol insonni shakllantirish kelajak taqdirimizni belgilab beruvchi dolzarb masalalardan biriga aylandi.

Prezidentimiz Mirziyoyev Shavkat Miromonovich O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisida shunday ta'kidladilar: "Hukumatning tegishli vazirlik va idoralar hamda butun ta'lim tizimining hurmatli domlalarimiz va professor o'qituvchilarimizning eng muhim vazifasi yosh avlodga puxta ta'lim berish ularning jismoniy va ma'naviy yetuk insonlar etib tarbiyalashdan iboratdir. Yoshlarning mustaqil fikrlaydigan yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimiz bor kuch imkoniyatlarini safarbar etamiz"- deya ta'kidladilar³⁷.

Buyuk islohotlar amalga oshirilayotgan sharoitda ijodiy fikrlovchi yoshlarga bo'lgan talab davr taqozosidir. Chunki shaxsiy dunyoqarashga ega bo'lgan insonlarga jamiyat taraqqiyotini ta'minlovchi muvaffaqiyatlarga erishishga qodir bo'ladilar.

Boshlang'ich sinf matematika ta'limida muammoli savol, muammoli topshiriqlar vositasida muammoli vaziyatlar yaratish va o'quvchilarni muammolarni hal etishga jalb qilish o'quvchilarning bilish faoliyatini ma'lum maqsadga yo'naltirishga xizmat qiladi, ta'lim jarayoniga ijodiylik bag'ishlaydi va ijodiy fikrlash darajasining rivojlanishi uchun qulay sharoitlar yaratadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari faoliyatini faollashtirishga xizmat qiladigan ta'limiy o'yinlar ijodiy fikrlashga o'rgatishning muhim shartidir.

³⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: "O'zbekiston", 2016. -14 b.

Boshlang'ich ta'lim jarayonini ijodiy tashkil etishning bosh maqsadi o'quvchilarda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish, ushbu qobiliyatlarni yuzaga chiqarish hamda ularni ijodkorlik ruhida tarbiyalashdan iboratdir.

Ta'limni ijodiy tashkil etish muammosi tarkiban murakkab pedagogik hodisa bo'lib, ijodiy ta'lim, ijodiy ta'limni tashkil etish, bolalarda ijodiy qobiliyatlarni tarbiyalash, ijodiy o'zlashtirish kabi qator komponentlardan iborat. Inson ijodiy salohiyati tashkiliy qismlari haqida hozirgi paytda bir necha farazlar mavjud bo'lsa ham, bu masala hozirgacha ochiq turibdi. Ko'pchilik psixologlar qobiliyatni ijodiy faoliyat bilan bog'laydilar, eng avvalo tafakkur xususiyatlari bilan bog'laydilar. Inson intellekti masalalari bilan shug'ullanadigan amerikalik mashhur psixolog Gilford talqini bo'yicha ijodkor shaxslar divergent tafakkurga ega bo'lishadi. Ushbu tafakkur turiga ega bo'lgan insonlar biror bir masala yechimini topmoqchi bo'lsalar faqat yagona bir yechimni emas, balki yechimning bir necha variantarini ko'rib chiqadilar.

Tezkorlik g'oyalarning maksimal miqdorini aytilish. Turli xil g'oyalarni namoyon eta olish. Originallik - yangi nostandart g'oyalarni yaratish qobiliyatiga ega bo'lish. Natijaviylik – o'zining mahsulotini yaratish yoki uni oxirigacha tugatish, tayyor holga keltirish.

Ijodiy tarbiya metodikalarini ishlab chiqishda olimlar va pedagoglar ijodiy topshiriqlarning nazariyasi asosida ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish bo'yicha dasturlarni quyidagi ijodiy qobiliyatlarini ilgari suradilar:

- tavakkal qila bilish;
- anglash va harakatlarda izchillik;
- fikrlash tezligi;
- yangi g'oyalarni yaratish;

Bundan kelib chiqqan holda, ta'lim oluvchilar ijodiy qobiliyatlarining rivojlanishini quyidagi asosiy yo'nalishlarni aniqlash mumkin:

- Tasavvur va rivojlantirish bo'yicha.
- Fikrlar shakllantiruvchi tafakkur sifatining o'sishi bo'yicha.

Ta'lim jarayonini takomillashtirishga qaratilga talaygina ilmiy ishlar olib borilayotgan bo'lsa-da, ta'lim oluvchilarning ijodiy ishlash qobiliyatlarini shakllantirish hamda rivojlantirishga zamonaviy ta'lim talabi bo'lib qolmoqda.

O'qitish jarayonida o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini oshirish muammosi murakkab va ko'p qirralidir. Shuning uchun o'quvchilar ilmiy-nazariy va amaliy bilimlarini oshirishda ularning kasbga bo'lgan qiziqishi hamda qobiliyatini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu o'rinda shuni esdan chiqarmaslik kerakki, o'qitish jarayonida o'quvchilar ijodiy qobiliyatlarini oshirish va ularning amaliy ko'nikma, malakalarini shakllantirish uchun ta'lim jarayoniga yuqori darajali malakaga ega bo'lgan, qobiliyatli hamda mohir ustalarni jalb qilish, ularni ham ishlab chiqarishning zamonaviy texnika va texnologiyalari bilan tanishtirish zarur.

Ta'lim jarayoni paradigmasi o'zgarayotgan sharoitda o'quvchilarning mashg'ulotlarda bilimlarni mustahkamlash, chuqurlashtirish va nazorat qilish emas, balki mustaqil ta'limning roli o'sib bormoqda.

Bugungi kunda ta'lim mazmunining o'zgarishida qo'yiladigan talablar o'zgardi, balki o'quv muassasasida bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'lishi kerak bo'lgan

o'quvchilar, hamda o'qituvchining o'quv jarayonidagi faoliyatiga qo'yiladigan talablar ham o'zgardi.

Ta'lim sharoitida o'qituvchi pedagogik faoliyatni nafaqat rejalashtirish va loyihalashtirish, balki o'quvchilarning o'quv faoliyati tuzilmasi hamda mazmunini ishlab chiqishi, ijodiy ishlash qobiliyatini shakllantirish kerak. Shuningdek, o'quvchilarning bilimlarni mustaqil izlash hamda topish, nazariy bilimlarni amalda qo'llay olishga o'rgatish muhim ahamiyatga ega bo'lib, ta'limning bunday tashkil etilishi o'quvchilarda fanga bo'lgan qiziqishi oshadi, bilim olishlari faollashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev. Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – T., 2020.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: "O'zbekiston", 2016. -14 b
3. Jumayev M.E., Tadjiyeva Z. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi. - Toshkent:" Fan va texnologiya", 2005. -312 bet.
4. Jumayev M.E. O'qituvchining ijodiy shaxs sifatida rivojlanishida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik - matematik tayyorgarligi. –Toshkent: "Fan", 2009. - 240 b.
www.uzedu.uz -O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi sayti.
www.ziyonet.uz - Axborot ta'lim portal.
www.multimedia.uz -multimedia umumta'lim dasturlarini rivojlantirish markazi.

Мундарижа

<i>Хамидов О.Х.</i> Рақамли технологияларни таълим жараёнига татбиқ этишнинг устувор вазифалари	3
<i>Қаҳҳоров О.С.</i> Рақамли иқтисодиёт тараққиёт омили сифатида	6
<i>Тўхсанов Қ.Р.</i> Таълим беришда рақамли технологиялардан фойдаланишнинг аҳамияти	7
I ШҶҒБА БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМГА РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ ҚЎЛЛАШ ИМКОНияТЛАРИ	
<i>Адизов Б.</i> Замонавий таълимда рақамли технологиялардан фойдаланиш истиқболлари	11
<i>Олимов Ш. Ш.</i> Бошланғич таълимни табақалаштиришнинг муҳим омиллари	16
<i>Ҳамроев А.Р.</i> Масофавий таълим соҳасида рақамли технологиялардан фойдаланиш имкониятлари	21
<i>Чудакова Вера Петровна.</i> Перспективность и особенности реализации «Технологии формирования компетентностей конкурентоспособности личности педагогов в условиях инновационной деятельности» с применением цифровых технологий	24
<i>Чемезов Сергей Александрович, Сахновская Елена Геннадьевна, Алмазова Юлдуз Исмаиловна.</i> Цифровые ресурсы для педагогов начальной школы	30
<i>Djumayev Mamanazar.</i> Boshlang'ich sinf matematika darslarida milliy o'quv dasturini joriy etish istiqbollari	34
<i>Muhittin Gümüş.</i> Dilpsikolojisi çerçevesinde anadili (türkçe) öğretiminin kişilik oluşumuna etkisi	38
<i>Mustafa Said ARSLAN.</i> Özbek türkçesi konuşanlara türkiye türkçesi öğretiminde yalancı eş değer sorunu	48
<i>Döne ARSLAN.</i> Türkiye türkçesi açısından özbek türkçesine bir bakış	57
<i>Умуров З. Л.</i> Таълимни рақамлаштириш шароитида педагогларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш педагогикаси фани асослари	61
<i>Masharipova U.A.</i> Boshlang'ich ta'limga raqamli ta'lim texnologiyalarni joriy etish davr talabi	65
<i>Sayfullayev G'M., Alimova L.X., Temirova I.S.</i> 4-sinfda Markaziy Osiyolik allomalarning tabiat haqidagi fikrlaridan foydalanib raqamli texnologiyalar asosida dars o'tish	68
<i>Умуров З. Л.</i> Таълимни рақамлаштириш шароитида ўқув-билув муаммоларини таълим жараёнига татбиқ қилишнинг шарт-шароитлари	70
<i>Sayfullayev G'M., Yodgorova G.F., Yodgorov F.O'.</i> Boshlang'ich sinf "atrofimizdagi olam" darslarida o'qitishning raqamli pedagogik texnologiyalaridan foydalanish	74
<i>Sayfullayev G'M., Alimova L.X., Hamroyeva D.O.</i> Tabiatshunoslikni oqitishda foydalaniladigan raqamli texnologiyalar	76
<i>Nigmatova M.M.</i> Raqamli o'yinlar bolalarni oqitish usuli sifatida	80
<i>Yarashov M. J., Hamdamova X. I.</i> Ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarning o'rni	82
<i>Yarashov M. J., Barotova F. B.</i> Boshlang'ich ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarning tadbiq etish metodikasi	85
<i>Yarashov M.J.</i> Boshlang'ich sinf matematika ta'limni raqamli texnologiyalar orqali ijodiy tashkil etish jarayoni	88
II ШҶҒБА БОШЛАНҒИЧ СИНФЛАРДА ЎҚУВЧИЛАР БИЛИМИНИ БАҲОЛАШНИНГ ХАЛҚАРО ТИЗИМИ	
<i>Юлдашева М. М. Бафаева Дилдора.</i> Обучение учащихся анализу художественных произведений в начальных классах на основе заданий PIRLS	91
<i>Jurayev B.T., Qamarova Z.</i> Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar bilimini nazorat qilish va baholash tamoyillari	96
<i>Doniyorova N. M., Hamroyev A. R.</i> Husnixat darslarida xalqaro tadqiqot baholash tizimi-pirls matnlarini qo'llashning ahamiyati	98
<i>Мустафоев Б.</i> Бошланғич синф ўқувчиларида мусикий саводхонликни шакллантириш	101